

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA OT SO'Z TURKUMINI O'QITISH METODIKASI (METODIK TAVSIYA)

Isakova Shahnoza Maxamatjonovna

*Andijon viloyati Xojaobod tumani 14- umumiyl  
o'rta ta'lism maktabi boshlangich sinf 2-toifali o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Mazkur metodik tavsiyada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini o'qitish va ot so'z turkumiga oid ilg'or o'rgatish metodlari bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lism, bolalar, ona tili darslari, boshlang'ich sinf, boshlang'ich sinfda ot so'z turkumi, 1-4-sinf, o'quvchilar, nutq.

**Аннотация:** В данной методической рекомендации содержится информация об обучении учащихся начальной школы словосочетаниям и передовых методах обучения, связанных с словосочетаниями.

**Ключевые слова:** начальное образование, дети, уроки родного языка, начальная школа, именная группа в начальной школе, 1–4 классы, учащиеся, речь.

**Abstract:** This methodological recommendation provides information on teaching noun phraseology to primary school students and advanced teaching methods related to noun phraseology.

**Keywords:** primary education, children, native language lessons, primary school, noun phraseology in primary school, grades 1-4, students, speech.

### KIRISH

Boshlang'ich ta'lism — ummumiy o'rta ta'lismning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lism 1- 4- sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim ilk bilimlar poydevorini shakllantirib beradigan alohida bir tizim sifatida xizmat qiladi. Shu sababli barcha fanlardan dastlabki tushunchalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlanirilib boriladi. Bu jarayonda ona tili fani tizimidagi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Shu asosda boshlang'ich sinflarda ona tili fani Davlat Ta'lim Standartlariga asoslanib o'rgatiladi. Ona tilining tayanch tushunchalaridan biri so'z turkumi

hisoblanadi. O'quvchilarga so'z turkumini o'rgatishdagi asosiy vazifa ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, o'quvchilarining shu paytgacha foydalanib kelayotgan so'zlarining ma'nosini tushunishga erishish, u yoki bu so'zdan o'rinni foydalanish malakasini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish hisoblanadi. 1-2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanilishini o'zlashtirilishiga ahamiyat beriladi. 4- sinfda otning egalik qo'shimchalarini bilan Ta'limming zamonaviy transformatsiyasi qo'llanilishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ot so'z turkumini o'qitishda beriladigan ma'lumotlarning farqlari talaygina.

Bunda DTSga mos ravishda o'quv qo'llanma va adabiyotlar tilshunos, pedagoglar tomonidan tuzib chiqilgan. Boshlang'ich sinf ona tili darsligining mualliflari tomonidan aynan kichik yoshdagi o'quvchilarga mos darslik tadbiq qilingan. Ular ona tili borasidagi ilmiy nazariyalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushunarli bo'lishi uchun soddalashtirilgan variantini darsliklarda qo'llagan. "Ot" mavzusi ustida ishslash tizimi — bu nutqning ma'lum bir qismining grammatik xususiyatlarini va umumlashtirilgan leksik ma'nosini o'rganishning qat'iy belgilangan ketma- ketligini o'z ichiga olgan maqsadli jarayondir. Bilimning tarkibiy qismlari, shuningdek, mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, uning yakuniy maqsadi nutqda otlarni to'g'ri ishlatish va ularni to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish hamdir

So'z turkumlari ustida ishslash metodikasining lingvistik asosi so'zlarining leksikgrammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlarga ajratilishi, ya'ni so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarini so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'l-lar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarining ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinni foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z

turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish Ta'limning zamонавиј transformatsiyasi ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi. —Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosи va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan. Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

I. „Ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;

II. kim? so'rog'iga javob bo'lган (shaxs bildirgan) otlardan so'rog'iga javob bo'lган (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni gan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;

III. kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan ornlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;

IV. otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish; v. otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;

V. otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish; vii. o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinni foydalanish malakasini o'stirish;

VI. so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish. Bu vazifalarning har biri alohida etnas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, „Ot" mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lган bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi.

Masalan, 1-2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari vafikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi. So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, (lush, hayvon, asalari), yer va osmonga oid narsalar (quyosh, yulduz, daryo, tog'), o'simliklar (paxta, beda, gul), voqealar (yig'in, majlis), tabiat hodisalari (shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiroq), belgi-xususiyat (ahillik, kuchlilik, samimiyat), harakat-holat (uyqu, sevinch, kurash), o`rin va vaqt (yoz, bahor, joy) nomlarini bildiradi. Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalarini bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi. Otning ma'nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ot so'z turkumini o'rgatishda quyidagi didaktik o'yinlardan samarali foydalanish mumkin.

3-4- sinfda “So'z turkumlari” bo'limi o'rganilayotganda quyidagi kabi savollardan foydalanish mumkin:

1. So'zlar nima uchun turkumlarga bo'linadi?
2. Ot qanday qo'shimchalar bilan qo'llanadi?
3. Egalik qo'shimchalarini va ularning vazifasi nima?
4. Kelishik qo'shimchalarini vaular qanday vazifa bajaradi?
5. Sifat va ot turkumining o'zaro qanday bog'liqligi bor?
6. Ot bilan fe'lning o'zaro qanday bog'liqligi bor?

7. Fe'llardagi zamon qo'shimchalari qanday ma'nolarni bildiradi?
8. Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari qanday ma'nolarni bildiradi? va Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi hokazo.

1- savolda o'quvchilar quyidagi javoblari bilan qatnashadilar: - So'zlar turli ma'nolarni bildiradi. - Ayrim so'zlar narsa ma'nosini bildiradi. - Ba'zi so'zlar shaxs ma'nosini bildiradi. - So'zlar harakat ma'nosini ham bildiradi. - So'zlar belgi ma'nolarini bildiradi.

- So'zlarni ma'nolariga ko'ra turlarga bo'lib o'rgansak oson bo'ladi. 4- sinfda 2-savolga quyidagicha javob berdilar: - Otlar ko'plik qo'shimchasini oladi. - Otlar – lar qo'shimchasini oladi. - Otlar ot yasovchi qo'shimchalarni oladi. - Otlar – chi qo'shimchasini oladi. - Otlar – dosh qo'shimchasini oladi va hokazo. Otlarning egalik qo'shimchasi (-im, -ing, -si, - imiz, - ingiz, - lari) qo'llangan holatlari, otlarning kelishik qo'shimchalari bilan ishlatilgan holatlari gaplar tarkibida ko'rsatildi va so'roqlari yordamida otlar aniqlatildi. O'quvchilarda "Aqliy hujum" orqali "Otlar yana boshqa qo'shimchalar bilan ham qo'llanar ekan. Ular qanday qo'shimchalar ekan? - degan qiziqish paydo bo'ldi. Shundan so'ng ularga quyidagi savollar berildi: - Otlar oladigan qo'shimchalar haqida qanday ma'lumotlarni bilar edingiz? - Ot oladigan qaysi qo'shimchalarni bilmas ekansiz? Ularni bilishni xohlaysizmi? Ko'rinish turibdiki, o'qituvchining savoli – o'quvchilar bilish qobiliyatlarini boshqarish vositasi. Savollar qaysi ma'noda yoki vaziyatda qo'llanishiga qarab, o'quvchilarni ilgarilab borishga, bilimlar sari intilishga undaydi, ularni fikrlash darajasini oshiradi. O'quvchilar "Aqliy hujum" orqali fikrlarning qadr –qimmatini, umumiyligini tushunish va tasavvurni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishini anglab boradilar. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullardan biri "Klaster" usulidir. Klaster so'zi bog'lam ma'nosini bildiradi. Klasterlardan darsning da'vat, anglash va fikrlar bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metod turli xil g'oyalari o'rtasidagi aloqalar tog'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilma. Bu metod mavzuning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. "Klaster" metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash va guruh-guruh bo'lib ishlashda foydalanish mumkin. Mazkur metod o'rganilayotgan til hodisasini umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni

toppish imkoniyatini yaratadi. “Klaster” da sinf yozuv doskasiga yoki katta varaqqa kalit so’zlar, so’z birikmalari yoki gaplar yoziladi va ta’limning kalit so’zlar til hodisasining aloqadorligiga qarab bog’lab boriladi. Klaster tuzishda, agar u doska yoki katta varaqda sinf jamoasi bilan bajarilayotgan bo’lsa, barcha o’quvchilarning ishtirok etishi shart. Masalan, so’z turkumlarini o’rganishda tarmoqlash usulidan foydalanilganda o’quvchilarda darsga bo’lgan qiziqishi kuchayadi. Tarmoqlash usulidan 3-sinfda “So’z turkumi” tushunchasini hosil qilishda foydalanish mumkin. Bunda o’quvchilarga quyidagi savolni beriladi: - So’zlarni ma’nolariga ko’ra qanday turlarga bo’lib o’rganiladi? Ularning javobini doskaga yozib boriladi. Shundan so’ng shaxs va narsa bildirgan so’zlar ot; belgi bildirgan so’zlar sifat; harakat bildirgan so’zlar fe’l; miqdor bildirgan so’zlar son degan atama bilan tanishtirildi va yuqoridagi so’zlar tarmoqqa kiritildi. -O’ylang ot, sifat, fe’l, sonni bitta so’z bilan nima deb nomlash mumkin? So’z turkumlari mavzusi bo’yicha klaster tuzishdan mavzuni o’rganmasdan oldin foydalanish o’quvchilarni yangicha filr yuritishga undaydi. Metodist olimlar aytganidek, klasterni mavzuni o’rganishni boshlash jarayonida tuzish “ bilimlarga yetib borish strategiyasi” ekanini isbotlaydi. 4- sinfda “ So’z turkumlari” bo’limi yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlash darsida “Zig- zag” metodi ham yaxshi samara berdi. Sinf jamoasini kichik guruhlarga bo’ldik. Har bir jamoada oltitadan o’quvchi bo’ldi, har bir guruhda boshqaruvchi belgilandi. U jamoasi tomonidan aytilgan fikrlarni to’ldiradi va sistemaga soladi. Guruhlarga ajratishda rangli doirachalardan foydalandik.

Bir xildagi doiracha olgan bolalar bir stol atrofida birlashdilar. Bunda kuchlarning teng bo’lishiga e’tibor berdik.

- 1- guruh uchun. 1. 4- sinfda qaysi so’z turkumlarini o’rgandingiz?
2. Ot so’z turkumidagi so’zlarga qaysi qo’shimchalar qo’shiladi? Otga qo’shiladigan qo’shimchalarning vazifalarini aytинг.
- 2- guruh uchun. 1. 4- sinfda qaysi so’z turkumlarini o’rgandingiz?
2. Otning belgilarini bildiradigan so’z turkumi qaysi? U otning qanday belgilarini bildiradi?
- 3- guruh uchun. 1. 4- sinfda qaysi so’z turkumlarini o’rgandingiz?

2. Ot , sifat, fe'l yasovchi qo'shimchalarni klasterda ifodalang va ularni misollar bilan tushuntiring.

4- guruh uchun. 1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?

2. Ot, sifat, fe'l yasovchi qo'shimchalarni klasterda ifodalang va ularni misollar bilan tushuntiring.

5- guruh uchun. 1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?

2. Son so'z turkuming xususiyatlarini klasterda ifodalang.

Sonlar nimaning miqdori va tartibini bildiradi? O'quvchilarning jamoasi vazifani bajarib bo'lishgach, guruhlar almashtirildi, ya'ni boshqaruvchi guruhidagi o'quvchilarni ikkita va bitta qilib boshqa guruhlarga tarqatdi. Yangi tuzilgan jamoada har bir guruh vakili tartib bilan o'z bilganlarini boshqalarga tushuntirib berdi. Shundan so'ng o'rganilganlar yuzasidan taqdimot bo'ldi. O'qituvchi savollar yordamida sinf o'quvchilarining bilimlarini aniqlaydi “ Kim ko'p eslab qoladi ?” deb nomlagan holda o'tkazish mumkin. Bu diktantning maqsadi xotirani ishga solish va imloviy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bunda o'qituvchi har bir gapni bir marta o'qiydi. O'quvchilar yodida qolganlarini yozadi.O'qituvchi bir oz pauzadan so'ng ikkinchi gapni o'qiydi. O'yin – diktantning materiali sifatida so'z olinishi ham mumkin. Unda ham o'qituvchi 3 ta so'zni birdaniga o'qiydi va 10 – 15 soniya pauza qilinadi.O'quvchi eslab qolganini yozadi. Keyin yana uch so'z o'qib beriladi. Bunday tipdag'i o'yin lug'at diktantiga 1 – sinfda 5 – 8, 2 – sinfda 8 – 10, 3 – sinfda 10 – 12, 4 –sinfda 12 – 15 so'z olinadi. Diktant yozib bo'lingach, har bir o'quvchi diktantidagi so'zlar sonini sanaydi. O'qituvchi oldindan diktantning to'liq matnini yozib, ustini bekitib qo'ygan bo'ladi.O'quvchilar diktantini tekshirayotganda uning ustini ochib qo'yadi. O'quvchilarning bahosi tushirib qoldirgan so'zlar soniga qarab pasaytiriladi. O'quvchilar diktantni yozib bo'lishgach, o'rganilgan mavzulardan kelib chiqib topshiriqlar berilishi mumkin. Masalan, “ So'zlardagi unlilarning tagiga chizing ”, “ Ajratib ko'rsatilgan so'zga ma'nodosh so'z toping ”, “ Shu so'zlar ishtirokida gap tuzing ”, “ Gap tuzing va tuzgan gaplaringizning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlang, tagiga tegishlicha chizing ” kabi. Dastlabki paytlarda ohangdosh so'zlardan foydalanish lozim ( ustun, tutun, osmon, somon kabi ). Bu o'yinni dastlabki paytlarda “ Eslab qol ”

deb nomlash mumkin. Diktant yuzasidan o'quvchilar bilan quyidagi savollar asosida suhbat o'tkazish mimkin. Inson qancha so'zni xotirada saqlab qola oladi ? Nima uchun birov so'zlarni ko'p eslab qoladi, boshqa birovlar kam so'zni eslab qoladi. Suhbatdan so'ng o'quvchilarga ko'cha, daryo, shahar, kishilarning ismi, badiiy asar nomlarini eslab qolishga harakat qilishlari aytildi. Shundan so'ng o'quvchilarning o'zlari bu diktantni yozdirishni talab qila boshlaydilar. Ko`rinadiki, boshlang`ich sinf ona tili darslarida turli xil interfaol metodlari va texnika vositalaridan unumli foydalanish mumkin bo`ladi. Bularning barchasi darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## **XULOSA**

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak mamlakatimizda ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar va intellektual salohiyatning oshib borishi zamonaviy bilimlarning egallanishiga turtki bo'ladi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi innovation o'zgarishlar va ularni zamonamizning yangi ilg'or talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish muhim vazifa va maqsadlardan biribir. Bu borada "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi va to'plangan tajribani tahlil qilish, umumlashtirish asosida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan jamiyatning barcha jabhalari, xususan, ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yishga qaratilayotgan e'tibor samarasi o'laroq, bugun jamiyatning barcha sohalari va xalqimiz turmush tarziga kompyuter texnologiyalari chuqur kirib borayapti

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsy javobgarli – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: "O'zbekiston".2017.-b 44.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. –b. 57.
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan "O'zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun Ta'limning demokratik

taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevordir” mavzusidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi, 2009. 6-dekabr.

4. Karimov I.A. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: “Sharq”, 1997, 57-bet.
5. Safo O. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. T.: O’qituvchi. 1997 y.
6. Sog’lom avlod - O’zbekiston kelajagi. O’zbekiston Bolalar jamg’armasi nashri. T.: O’zbekiston. 2001y.
7. To’raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo'yicha multimediali elektron o'quv qo'llanma yaratish texnologiyasi //Uzluksiz ta'lim. 2011 y.
8. T.G'afforov va boshqalar Ona tili 1-sinf,, T.:“Sharq”, 2017-yil .
9. K.Qosimova va boshqalar Ona tili 2-sinf,, T.:“Cho'lpon”, 2018-yil.